

## DIL VA RUH TURKUMIDAN HIKOYALAR

### **Muzrobxonova Madinabonu Ne'matjon qizi**

*Parkent tumani 17-umumi o'rta ta'lim maktabi*

*11-B sinf o'quvchisi Besh daqiqalik hayot*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada onajonlarimizning hayotiy kechinmalari, ularning farzandlari uchun har narsaga tayyor ekanliklari, insonning ichki kechinmalari, ko'z yoshlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Inson, ona, farzand, hayot, taqdir, mehnat, bir kam dunyo, vaqt, ruhiyat, kechinma, yaxshilik, umr.*

Inson dunyoga kelgan payt Qora soch va oq daftar bilan kelar ekan. Ketayotgan lahzalarda esa oq soch ila qora daftar bilan ketar ekan. Qiziq! Nima uchun shunday bo'lishiga hayron qolardim. Yaqin insonlaringiz ko'z oldingizda so'nib borishi, tirik vujudda yashayotgan insonni ham so'ndirib qo'yar ekan. Unga qanchalar chiroyli tabassum bilan qarashning o'zi ham juda og'ir. Balki bu boshga tushgan sinovdir deb o'ylaymiz. Yo'q, aslida o'sha ona o'zi uchun emas, balki bolalari, nabiralari uchun yelib – yugurib o'z sog'ligiga e'tibor bermagani uchundir. Xattoki o'zi uchun besh daqqa ajratmasdan sochlarga oq oralab, yuzlarga ajin tushib, bellaridan quvvat ketib qolganini bilmay qolarkan. Hech bir ona o'zi uchun yashamaydi bu olamda. Nima uchun shunday? Aynan qo'llarimiz qadoq bo'lib ketganda ham bolalari uchun ovqat tayyorlaydi. Voyaga yetgan bolasi hali hamon u uchun yosh boladek qaragan munis ko'zlari hamisha nurli bo'lsin deyman. Onajonlarimiz hayot yo'llarimiz davomida doimo yonimizda turib turib, qo'llab-quvvatlashlarini istayman. Ular uchun ajratgan besh daqiqamiz besh yillik quvonch hadya etadi bilsangiz agar. Bu ular uchun ulkan baxtdir aslida. Keling, men sizga bir misol keltiray. Chekka bir qishloqda mushtipar bir ayol yashaydi. U ayolning to'rt nafar farzandi bo'lib, ularning ikki nafari o'g'il, ikki nafari qiz farandlar edi. Har kuni jigarbandlari uchun erta tongdan dalaga ishlagani chiqib ketar edi. Har kuni ushbu holat takror edi. Oradan vaqtlar, yillar o'tib, u ayolning farzandlari voyaga yetishdi. Ilm izlanib, o'qib professor darajasiga erishishdi. Bu muvaffaqiyatlarning barchasiga erishishlarida mushtipar onaizorning hissasi bitmas-tuganmas edi... Onaizorning shu vaqtida qo'llaridan kuch, ko'zlaridan nur, yuzlaridan chiroy, qaro sochlariagi go'zallik izsiz yo'qolgan edi...

Bir kam dunyo deganlaridek, ularning yoshligini, umrini, go'zalligini, quvonch-u baxtlarini qaytarib bera olmasligimiz shu tobda bilinadi. Bu narsa har kimning ich-ichidan zil ketishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, hech bo'lmasa ularning yonida bo'lib, shirinsuhanlik ila hayotlariga baxt, quvonch, osoyishtalik baxsh etish barchamizning farzandlik burchimiz hisoblanadi. Ularning ham yuqoridagi tuyg'ularni his qilishga, bahramanda bo'lishga haqlari bor! Buning uchun esa besh daqiqalik

vaqtning o'zi kifoya qiladi xolos! Yaqin insonlarimizdan soniyalarni qizg'onib yillarimizni yo'qotmaylik!

### **RUHIYAT BILAN SUHBAT**

Bu bitiklar kun kelib yo'q bo'lib ketar, barchaning yodidan ham ko'tarilib ketar. Balki ushbu jumlalarni hech kim o'qimas, nazariga ham olmas. Ehtimol, ko'z yoshlar bu yozuvlarni yuvib, tarixdan o'chirib yuborar... Bilmadim...

Ochig'i anglab, tushuna olmayapman. Nimalar sodir bo'layotganiga aqlim yetmayapti. Mayli, nima bo'lsa ham yaxshilikka deb o'zimga o'zim taskin bergandek bo'laman.

Ammo o'sha kunlar qulab tushadigan darajada turganiningda, majoling yetmay qolganda hammadan, yon atrofingdagilardan mehr kutasan. Bir tomchi mehr... Bir kaft mehr... Bir quchoq mehr... Lekin ular seni ushbu holtingni ko'rib rohatlanishayotganlarini ko'rib, ushbu xayollar tumandek tarqab ketadi, zulmat qa'riga mubtalo bo'lasan. Yana uzoq xayolot saltaniga jo'nab ketasan...

Bu hayotda hamma narsa o'tkinchi, hamma narsa ro'yo... Vaqtlar o'tib bularning barchasi unut bo'ladi, ertakka aylanadi. Yaxshi kunlar quchog'iga oladi bizni. Lekin o'sha xayoliy kunlarda kim qanday inson ekanligini ko'zguda aks ettirgandek iz qoldiradi. Inson oyog'ida tik tura olishligi uchun, birovga bosh egmasligi uchun hamisha bir narsaga amal qilishi kerakligini anglaydi. Ya'ni, Yaratgandan boshqa zotdan mehr-muhabbat, ishonch kutmasligi, suyanmasligi zarur ekan. Umr davomida inson boshiga turfa musibatlar, talofatlar kelishi mumkin. Ba'zan hayot insonni xoldan toydirib, yiqilishga majbur qiladi. Ayrim hollarda hamma narsa ustingga yopiriladi va xattoki bir odim tashlashga ham madoring qolmay, kuch topolmay qoladigan darajadagi vaziyatga to'g'ri keladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrab, yo'qotishlarni boshdan kechirish mumkin...

Shunday holatlarda barchasini orqaga tashlab, ushbu kulfatlardan ham yaxshilik qidirish lozim. Atof-olamda bu kabi insonlar son-sanoqsiz. Ba'zilari yaxshilik yo'lidan yurib manzili tomon ildam qadamlar bilan borishmoqda, ayrimlari esa manzillariga yetib, jarlikdan chiqish bilan ovora.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nima bo'lishidan qat'iy nazar Hayotga hamisha tabassum bilan boqing! Ana shunda ko'rasiz atrofingizda ham xuddi siz kabi samimiy insonlar ko'payib borayotganini. Qimmataho vaqtingizni arzimas narsalarga, arzimas insonlarga sarf etmang, qadringizni biling. Dadil qadamlar birla kelajak uchun, baxtiqbol uchun intiling!

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Ruhiy dunyo tasviri"; M.Abdurahmonova,-Toshkent, "O'zbekiston", 1997-yil
2. "Ruhiyat ranglari va ohanglari"; D.Begimqulov,- «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2013-yil 38-soni.
3. Umurov, H. (2013). Tahlil chizgilari. Toshkent: Muharrir.
4. "Ruhiyatning betakror jilolari"; Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosheva,-Toshkent, 2012 yil  
17 yanvar-5 fevral